



UDK:81-114

Kurshida NARXODJAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori
E-mail: narxodjayeva_xurshida@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor J.Ibragimov taqrizi bilan

LANGUAGE AND THE HUMAN FACTOR: THE ESSENCE OF THE PRAGMATIC APPROACH

Annotation

This article is devoted to the study of pragmatics as one of the most important branches of modern linguistics. While semantics investigates the meaning of linguistic units and syntax deals with their structural relations, pragmatics focuses on the human factor in language use, exploring how communicative intentions, social context, and psychological aspects shape the functioning of linguistic signs. The paper discusses the object of pragmatics, which is defined as the interrelation between language, speaker, listener, and communicative situation. Special attention is given to its key concepts such as communicative situation, deixis, speech acts, presupposition, and implicature. These categories reveal how language goes beyond formal meaning, acquiring additional pragmatic layers depending on context, intention, and interaction. Furthermore, the article emphasizes the practical significance of pragmatics in different domains: analysis of literary texts, political discourse, media communication, advertising strategies, language teaching (linguodidactics), and digital communication, particularly in social networks. Pragmatics not only contributes to a better understanding of the expressive and functional potential of language but also demonstrates its role as a social and cultural phenomenon.

Key words: Honor and dignity, speech act, linguopragmatics, social functions, moral values.

«ЯЗЫК И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ФАКТОР: СУЩНОСТЬ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА»

Аннотация

Статья посвящена изучению прагматики как одного из важнейших направлений современной лингвистики. Если семантика исследует значение языковых единиц, а синтаксис — их структурные отношения, то прагматика обращает внимание на человеческий фактор в языке, анализируя, каким образом коммуникативные намерения, социальный контекст и психологические особенности влияют на функционирование языковых знаков. В работе рассматривается предмет прагматики, который определяется как взаимодействие языка, говорящего, слушающего и коммуникативной ситуации. Особое внимание уделено ключевым понятиям прагматики: коммуникативная ситуация, дейксис, речевой акт, пресуппозиция и импликатура. Эти категории показывают, что язык выходит за рамки формального значения, приобретая дополнительные прагматические оттенки в зависимости от контекста, намерений и взаимодействия участников коммуникации. Кроме того, статья подчеркивает практическую значимость прагматики в различных сферах: анализ художественных текстов, политического дискурса, медиакоммуникации, рекламных стратегий, преподавания иностранных языков (лингводидактика), а также цифровой коммуникации, особенно в социальных сетях. Прагматика способствует не только более глубокому пониманию выразительных и функциональных возможностей языка, но и раскрывает его роль как социального и культурного феномена.

Ключевые слова: Честь и достоинство, речевой акт, лингвопрагматика, социальные функции, духовные ценности.

TIL VA INSON OMILI: PRAGMATIK YONDASHUVNING MOHIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmatikaga bag'ishlangan. Semantika til birliklarining ma'nosini, sintaksis esa ularning grammatik tuzilishini tadqiq etsa, pragmatika tildan foydalanish jarayonida inson omili, ya'ni gapiruvchi va tinglovchi, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy-madaniy omillarning rolini o'rganadi.

Maqolada pragmatikaning predmeti sifatida til, nutqiy vaziyat va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil qilingan. Shuningdek, uning asosiy tushunchalari – kommunikativ vaziyat, deksis, nutq akti, presuppozitsiya va implikatura ilmiy-nazariy nuqtai nazardan keng yoritilgan. Ushbu tushunchalar til birliklarining oddiy semantik mazmunidan tashqari, ularning vaziyatga qarab qanday qo'shimcha ma'nolar hosil qilishini ko'rsatadi. Maqolada, shuningdek, pragmatikaning amaliy ahamiyatiga ham e'tibor qaratilgan. Badiiy matn tahlil qilish, siyosiy nutqlar va reklama matnlarining ta'sirchanligini baholash, chet tillarini o'qitishda muloqot vaziyatlarini shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va ramziy ifodalarni izohlash kabi sohalarida pragmatika keng qo'llanadi. Bu esa uning nazariy bo'lishi bilan birga amaliy ahamiyatga ham egaligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Or-nomus, nutq akti, lingvopragmatika, ijtimoiy funksiyalar, ma'naviy qadriyatlar.

Kirish. Tilshunoslik fanida XX asrning o'rtalaridan boshlab yangi yondashuvlar shakllandi va ularning eng muhimlaridan biri pragmatika bo'ldi. Dastlab u umumiy semiotikaning tarkibiy qismi sifatida shakllanib, keyinchalik mustaqil tilshunoslik yo'nalishiga aylandi. Pragmatika til

belgilarining inson faoliyati va nutqiy vaziyat bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etadi.

Agar semantika til birliklarining ma'nosini, sintaksis esa ularning tuzilish qonuniyatlarini o'rgansa, pragmatika tilning foydalanish jarayonini markazga qo'yadi. Ya'ni, insonning kimligi, nutqiy vaziyatning joyi va vaqti,

gapiruvchining maqsadi va tinglovchining qabul qilish darajasi til birliklarining mazmunini belgilab beradi.

Pragmatikaning shakllanishi bevosita falsafa, mantiq, psixologiya va sotsiologiya bilan bog'liq. Chunki til faqat belgilar tizimi emas, balki ijtimoiy muloqot vositasidir. Shu bois pragmatik tahlil tilni inson omilidan ajratib emas, balki uni nutq faoliyati bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi.

Natijada, XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda yangi paradigma "inson omili markazida bo'lgan tilshunoslik" shakllandi. Pragmatika esa ushbu paradigmada yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida tilshunoslikning nazariy va amaliy tadqiqotlariga keng yo'l ochdi.

Pragmatika – bu til belgilarining inson faoliyati va nutqiy vaziyat bilan aloqasini tadqiq etuvchi tilshunoslik sohasi. U tilni o'z-o'zidan mavjud tizim sifatida emas, balki insonning kommunikativ ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida o'rganadi. Shuning uchun pragmatika asosiy e'tiborini nutqiy jarayonning sub'ekti (gapiruvchi) va ob'ekti (tinglovchi)ga qaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida pragmatika masalasi keng o'rganilmoqda. A.Nurmonov pragmatik yondashuvni til hodisalarini inson muloqot ehtiyojlari bilan bog'lashda muhim metod sifatida ko'radi [1]. Sh. Safarov esa bu sohada asosiy tadqiqotchi bo'lib, uning "Pragmatika" nomli monografiyasida nutq akti, presuppozitsiya, implikatura va deiksis kabi tushunchalar chuqur tahlil qilingan [2]. M. Hakimov tilni ijtimoiy-madaniy kontekstda o'rganib, pragmatikaning madaniyatshunoslik bilan aloqadorligini ko'rsatadi [3]. Shuningdek, N. Mahmudov nutq madaniyatini pragmatik samaradorlik mezoniga asoslanib tahlil qiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Pragmatika quyidagi nazariy savollarga javob izlaydi:

Kim gapirmoqda? Gapiruvchining shaxsi, ijtimoiy mavqei, kasbi, yosh va jins xususiyatlari til birliklarining tanlanishida va ularning semantik rangida katta ahamiyatga ega. Masalan, rasmiy shaxsning nutqi bilan kundalik suhbatdagi nutq o'rtasida sezilarli pragmatik farq bo'ladi.

Qayerda va qachon gapirmoqda? Nutqiy vaziyatning makon va zamon omili pragmatik tahlilda muhim o'rin tutadi. Bir xil gap turli joy va sharoitlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, "Keling!" so'zi rasmiy majlisda taklif sifatida, oilaviy muhitda esa samimiy chaqiriq sifatida qabul qilinadi.

Gapiruvchi qanday maqsadni ko'zlamoqda? Nutq akti nazariyasida gapiruvchining maqsadi markaziy tushuncha hisoblanadi. Bir gap axborot berish, buyruq berish, iltimos qilish yoki his-tuyg'uni ifodalash kabi turli illokutiv maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Tinglovchi ushbu xabarni qanday qabul qilmoqda? Gapiruvchining pragmatik niyati doimo tinglovchi tomonidan qanday tushunilishi bilan bog'liq. Shu bois pragmatika "qabul qiluvchi omil"ni ham hisobga oladi. Masalan, kinoya yoki istehzo tinglovchi tomonidan to'g'ri anglanmasa, kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi.

Shu nuqtai nazardan, pragmatika til birliklarining kommunikativ qiymatini aniqlashga intiladi. U so'z va gaplarning lug'aviy yoki grammatik ma'nosidan tashqari, ularning ijtimoiy, psixologik va vaziyatga xos ma'nolarini ham o'rganadi. Demak, pragmatikaning predmeti – bu til belgisi, inson va nutqiy vaziyat o'rtasidagi uch tomonlama munosabatdir.

Pragmatika o'zining nazariy bazasida bir qator markaziy tushunchalarga tayanadi. Ular tilning oddiy semantik tahlildan farqli ravishda, inson omili va kommunikativ vaziyat bilan bog'liq ma'nolarni ochib beradi.

Kommunikativ vaziyat

Kommunikativ vaziyat – bu nutq aktining yuzaga kelish sharoiti bo'lib, vaqt, joy, ishtirokchilar, mavzu, ijtimoiy maqom va psixologik holat kabi omillarni o'z ichiga oladi. Nutqning mazmuni va ta'sirchanligi ko'pincha mazkur vaziyatga bog'liq bo'ladi. Masalan, "Bugun iliq kun" degan gap oddiy suhbatda ob-havoni tasvirlasa, ijtimoiy-siyosiy kontekstdagi nutqda ramziy yoki kinoyaviy ma'no kasb etishi mumkin. Pragmatik tahlil aynan shu qo'shimcha qatlamni aniqlashga intiladi.

Deiksis

Deiksis (yunoncha deixis – "ko'rsatish") nutqiy vaziyatga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan til birliklarini anglatadi. Bular shaxs olmoshlari ("men", "sen", "u"), ko'rsatish olmoshlari ("bu", "shu", "o'sha"), vaqt va joy bildiruvchi birliklardir ("hozir", "ertaga", "bu yerda", "u yerda"). Ular faqat nutqiy vaziyat orqali to'liq anglanadi. Masalan, "Men kelaman" gapidagi "men" kimligini faqat suhbat ishtirokchilari biladi. Shunday qilib, deiksis tilning kontekstsiz to'liq anglanmasligini ko'rsatadi.

Nutq akti

Nutq akti nazariyasi J. L. Ostin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, har bir gapning faqat ma'lumot berish emas, balki amal bajarish xususiyatini ko'rsatadi. Masalan, "Men seni tabriklayman" gapida axborot emas, balki tabriklash harakati bajariladi. Nutq akti uch darajada tahlil qilinadi:

Lokutiv akt – so'zlashning o'zi (tovush chiqarish, gap tuzish).

Illokutiv akt – gapiruvchining maqsadi (buyruq berish, iltimos qilish, maslahat berish).

Perlokutiv akt – tinglovchiga ta'siri (ishga kirishish, xafa bo'lish, xursand bo'lish).

Presuppozitsiya

Presuppozitsiya – bu gapiruvchi va tinglovchi o'rtasida umumiy bo'lgan bilim va tasavvurlardir. Har qanday nutq shu umumiy fonni talab qiladi. Masalan, "Ali ham imtihondan o'tdi" gapida tinglovchi avval boshqa kimdir imtihondan o'tganini bilishi kerak. Agar bu bilim bo'lmasa, gapning to'liq ma'nosi anglanmaydi. Pragmatika presuppozitsiyani kommunikativ muvaffaqiyatning asosiy shartlaridan biri sifatida ko'radi.

Implikatura

Implikatura – bu gapiruvchining bevosita aytilmagan, lekin nutq orqali anglatilgan ma'nosi. Bu tushuncha H. P. Graysning "hamkorlik prinsipi" nazariyasi bilan bog'liq. Masalan, kimdir "Siz darsga keldingizmi?" desa, javob: "Mashinam buzilib qoldi" bo'lishi mumkin. Bu javobda to'g'ridan-to'g'ri "Yo'q, kelmadim" deyilmagan, ammo mazmuni shundan iborat. Demak, implikatura gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi mantiqiy va kontekstual aloqaga asoslanadi.

Pragmatikaning ushbu asosiy tushunchalari tilning semantik va grammatik qatlamidan tashqari, uning ijtimoiy va psixologik funksiyalarini ochib beradi. Kommunikativ vaziyat, deiksis, nutq akti, presuppozitsiya va implikatura tahlili tilshunoslikda inson omilining markaziy o'rin egallashini ko'rsatadi. Shu jihatdan pragmatika tilni faqat belgilar tizimi sifatida emas, balki insoniy muloqot vositasi sifatida kengroq o'rganishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pragmatika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida til birliklarini faqat formal yoki semantik jihatdan emas, balki inson faoliyatida qanday qo'llanishi va qanday ta'sir ko'rsatishi bilan birgalikda o'rganadi. Shu sababli, u bir qator sohalarda katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi:

Badiiy matn. Pragmatika adabiyotshunoslik va stilistika bilan uzviy aloqada bo'lib, badiiy matndagi obrazli ifodalar, muallif va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ aloqani tahlil qilishda muhimdir. Masalan, yozuvchi ko'pincha metafora,

kinoya yoki ramz orqali bevosita aytmagan ma'nolarni yetkazadi. Pragmatik yondashuv ana shu yashirin qatlamlarni ochishga imkon beradi.

Ommaviy axborot vositalari. Siyosiy nutqlar, reklama matnlari, jurnalistik chiqishlarda pragmatikaning ahamiyati yanada yaqqol ko'rinadi. Chunki bu turdagi matnlarda asosiy maqsad – tinglovchiga ta'sir ko'rsatish, uni muayyan qarorga undashdir. Masalan, reklamada mahsulot haqida oddiy axborot emas, balki iste'molchida ijobiy hissiy munosabat uyg'otadigan pragmatik strategiyalar qo'llanadi.

Lingvodidaktika. Chet tilini o'qitishda pragmatikaning o'rni alohida. Chunki til o'rganuvchi nafaqat grammatik qoidalarini, balki real muloqot vaziyatlarida qanday gapirishni ham bilishi lozim. Masalan, ingliz tilida "Could you open the window?" so'zi grammatik jihatdan oddiy savol bo'lsa, pragmatik jihatdan bu iltimosni bildiradi. Demak, pragmatik kompetensiya chet tilini samarali o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar tili. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar tili pragmatika uchun boy materialdir. Qisqa, ramziy va emotsional xabarlar (smayliklar, hashtaglar, qisqartmalar) nutqiy vaziyatga xos pragmatik yuklama kasb etadi. Masalan, "😊" belgisi grammatik yoki semantik jihatdan tahlil qilib bo'lmaydi, lekin pragmatik jihatdan u tinglovchida kulgi yoki yengil kayfiyat uyg'otish vositasidir.

Pragmatika mustaqil yo'nalish bo'lsa-da, u tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan chambarchas bog'liq:

Semantika til birliklarining lug'aviy va grammatik ma'nosini o'rganadi. Masalan, "oq" so'zining ma'nosi – "rang nomi".

Sintaksis so'zlarning grammatik tuzilishi va birikish qonuniyatlarini belgilaydi. Masalan, "oq uy" – sifat + ot birikmasi.

Pragmatika esa bu birikmaning qaysi vaziyatda qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Masalan, "Oq uy" so'zi oddiy uyga nisbatan ishlatilsa – semantik ma'no, AQSh prezidenti qarorgohi sifatida ishlatilsa – pragmatik ma'no kasb etadi.

Shu bois pragmatika semantika va sintaksisni to'ldiruvchi, lekin ulardan farqli ravishda insoniy omil va kommunikativ vazifaga yo'naltirilgan yondashuvdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pragmatika zamonaviy tilshunoslikda inson omilini birinchi o'ringa qo'ygan yo'nalish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. U til birliklarini faqat semantik va grammatik darajada emas, balki ularning foydalanish sharoiti, maqsadi va ta'siri nuqtai nazaridan o'rganadi. Shu bois pragmatika tildagi kommunikativ qiymatni ochib beradi va nutqiy faoliyatni kengroq tushunishga xizmat qiladi.

Pragmatikaning asosiy tushunchalari – kommunikativ vaziyat, deksis, nutq akti, presuppozitsiya va implikatura, tilning amaliy qo'llanish jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. Ularning har biri gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Pragmatik tahlil badiiy matn, ommaviy axborot vositalari, lingvodidaktika va ijtimoiy tarmoqlar tilida katta ahamiyatga ega. Bu esa pragmatikaning nafaqat nazariy, balki amaliy qiymatini ham yaqqol ko'rsatadi.

Umuman olganda, pragmatika tilshunoslikning boshqa bo'limlari – semantika va sintaksisni to'ldirib, tilni insoniy muloqot vositasi sifatida keng qamrovli o'rganishga imkon beradi. Shu jihatdan u tilshunoslikning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Сафаров Ш. Парагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.143.
3. Safarov Sh. Pragmatika. – Toshkent: Universitet, 2008.
4. Hakimov M. Til va madaniyat: lingvopragmatik tahlil. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.
5. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Мўминов С. Маънавий кадрятлар: муомала сирлари. – Тошкент. Ўзбекистон, 1994. – 50 б.
7. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – Б.179.
8. Сафаров Ш. Парагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б.144.
9. Narxodjayeva X.. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. Monografiya. "Ilm-fan-ma'naviyat" nashriyoti. –Qarshi, 2024.
10. Narxodjayeva X.. Nutqiy muloqot kommunikativ aloqa turi sifatida. Zamonaviy tilshunoslikda madaniyatlararo muloqot. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –Qarshi, 2024..-B. 37-41.
11. Umurova F.P. Xushmuomalalik kategoriyasining nutq strategiyalari va kommunikativ funksiyalari// International Scientific and Practical conference "Actual issues science". 2024. –B. 209-215.